

Kredit shartnomasi

(namunaviy shakl)

_____ sh.

«_kun_» (____oy____) 20__ yil

Davlat-Aksiyadorlik Tijorat “Asaka” bank (OAJ) (keyingi o‘rinlarda “Bank”) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ro‘yxatga olingan Nizom hamda Bankning Bosh ofisi tomonidan _____ oy, kun, yil _____ № _____ sonli ishonchnomasi asosida ish olib boruvchi - **Bankning _____ (filial ko‘rsatiladi) boshqaruvchisi (F.i.sh ko‘rsatiladi)** bir tomondan va “**Jismoniy shaxsning f.i.sh .ko‘rsatiladi**” (keyingi o‘rinlarda “Qarzdor”) ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagicha tuzdilar:

I. Shartnomaning mohiyati.

- 1.1. Shartnoma ma‘zmoni istemol krediti bo‘lib, “Asaka” bank (AOJ) _____ filiali tomonidan uy sharoitini yaxshilash uchun O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan _____ **maxsulot nomi to‘liq** ko‘rsatiladi _____ sotib olish maqsadida qarzdorga kredit beradi. Ushbu shartnoma qarzdor Fuqaro: _____ f.i.sh. _____, va «_ho‘jalik sub‘ekti yoki tadbikorning nomi _____» bilan tuzilgan _____ xisob-kitob shartnomasiga asosan uy sharoitini yaxshilash uchun _____ maxsulot nomi to‘liq ko‘rsatiladi _____ sotib olish to‘g‘risidagi shartnomasiga asosan tuzilgan.
- 1.2. «Asaka» Bank tomonidan 2007 yil 24 sentabrda №51-sonli «Axoliga istemol kredit ajratish to‘g‘risid» tartibiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 18 maydagi 3878- sonli qaroriga asosan bank o‘z mablag‘lari xisobidan kredit ajratish.

II. Kredit berish muddati va shartlari.

- 2.1. Kreditning miqdori sotib olinayotgan shaxsiy istemol mollarning 100 % qiymatini tashkil etib uning miqdori _____ so‘mni tashkil etadi.
- 2.2. Kredit 36 oy muddatga beriladi. Kreditni qaytarish yakuniy muddati _____
- 2.3. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi yillik _____ foiz miqdorida belgilanadi.
- 2.4. Kredit «ho‘jalik sub‘ekti yoki tadbikorning nomi» INN, MFO: oluvchi bank va xisob raqami ko‘rsatiladi sonli xisob raqamiga uy sharoitini yaxshilash uchun _____ sotib olish uchun Qarzdor nomiga ochiladigan aloxida suda raqami orqali Qarzdorning yozma arizasiga muvofiq pul o‘tkazish yo‘li bilan beriladi..

III. Kredit ta‘minoti

- 3.1. Berilayotgan kredit ta‘minoti sifatida «Xaridor» omonatida shakllantirilgan pul mablag‘lari, Fuqaro _____ hamda _____ notarial tasdiqlangan kafillik shartnomalari taqdim qilinmoqda.

IV. Kredit bo‘yicha to‘lovlar va foizlarni to‘lash tartibi.

- 4.1. “Qarzdor” asosiy qarzi va kredit bo‘yicha xisoblab yozilgan foizlar to‘lovini “Muddatli majburiyatnoma jadvaliga” asosan har oyning _____ sanasiga qadar amalga oshiradi.
- 4.2. Kreditni qaytarish va foiz to‘lovlari quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:
 - naqd pul bilan;
 - jamg‘arma xisobvaraqlaridan pul o‘tkazish orqali;
 - qarz oluvchining ish joyiga bergan arizasiga ko‘ra ish haqidan yoki boshqa daromadlardan chegirib qolish xisobiga.
 - Qarz oluvchining nomidagi ochilgan «Plastik» kartochkasi orqali to‘lovlar amalga oshirilishi mumkin.
- 4.3. Kredit o‘z vaqtida qaytarilmagan taqdirda, muddati o‘tgan qarzdorlik bo‘yicha bo‘yicha foiz stavkasi amaldagi foiz stavkasidan 1.3 barabarga oshiriladi.

V. Taraflarning huquq va majburiyatlari.

- 5.1. Bank kreditni kredit ta‘minoti rasmiylashtirilgan kundan so‘ng, uch bank ish kunida o‘tkazib beradi.
- 5.2. Bankning majburiyati kredit berishda ushbu shartnomaning 3.1 bandiga asoslanadi.

- 5.3. Kredit va undan foydalanganlik uchun belgilangan foizlarini o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlash maqsadida Qarzdor tomonidan kredit ta'minoti bo'yicha hujjatlarni o'z vaqtida sifatli taqdim etish.
- 5.4. Qarzdor agar muxim yashash joyini O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'zgartirgan taqdirda bankdan olingan kreditni va uning ustama foizlarini muddatidan ilgari qaytarish shart.
- 5.5. "Bank", qarzdor tomonidan kreditni qaytarish muddati buzilganda (muddati o'tgan kreditlar bo'yicha) foiz stavkasini 1.3 barabarda oshiradi.
- 5.6. Qarzdor berilgan kredini va undan foydalanganlik uchun xisoblanganlik uchun xisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarmasa yoki kechiktirsa Bankka 0,5 % miqdorida o'z vaqtida qaytarilmagan, muddati o'tgan qarzi xisobidan har bir kunga penya to'laydi.
- 5.7. Qarzdor, olingan kreditni va ustama foizini, xisoblangan penya va jarimalarni to'liqligicha qaytargandan so'ng Bank bilan tuzilgan shartnomasini bekor qilish huquqiga ega.
- 5.8. Qarzdor olingan kreditni o'rnatilgan tartibda qaytarmagan taqdirda Bank kreditni undirishga doir shartnomaning 4.2 va 5.6 bandlariga asosan o'rnatilgan tartibda chora ko'rish huquqiga ega, hamda kreditni undirish maqsadida kredit ta'minoti xisobidan undirish huquqidan foydalanadi.

VI. Kredit shartnomaning amal qilish muddati.

- 6.1. Ushbu shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan so'ng hamda ushbu shartnomaning 4.3. bandiga muvofiq kredit ta'minoti o'rnatilgan tartibda to'liq rasmiylashtirilgandan so'ng kuchga kiradi va "Qarzdor" tomonidan o'z majburiyatini mazkur shartnoma bo'yicha to'laligicha bajargandan so'ng tugaydi.

VII. Qo'shimcha shartlar.

- 7.1. Shartnomada ko'rsatilgan boshqa barcha hollarda tomonlar javobgarligi O'zbekiston Respublikasi harakatdagi qonunlariga amal qiladilar.
- 7.2. Ushbu shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish kiritish tomonlarning kelishuviga ko'ra amalga oshirilad. Barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar "Qo'shimcha kelishuv" holida rasmiylashtirilib, ushbu shartnomaning ayrilmas qismi bo'lib hisoblanadi.

VIII. Nizolarni hal qilish

- 8.1. Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan nizolar taraflarning kelishuviga binoan hal qilinadi.
- 8.2. Kelishuvga kelinmagan holda esa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda Fuqarolik ishlari bo'yicha sudida ko'rib chuqiladi.

Tomonlarning yuridik manzillari va imzolari:

<p style="text-align: center;">Bank uchun:</p> <p style="text-align: center;">_____ Bank</p> <p style="text-align: center;">manzili _____</p> <p style="text-align: center;">MFO 00539.</p> <p>Boshqaruvchi: _____ f.i.sh _____</p> <p>Bosh xisobchi: _____ f.i.sh _____</p> <p>Tel: _____</p>	<p style="text-align: center;">Qarzdor:</p> <p style="text-align: center;">_____ f.i.sh. _____</p> <p style="text-align: center;">_____ yashash manzili _____</p> <p style="text-align: center;">Pasport seriyasi _____, kim tomondan va qachon berilgangan.</p> <p style="text-align: center;">_____</p> <p style="text-align: center;">(F.I.O. va imzo)</p> <p>Tel: _____</p>
---	--

Huquqshunos xulosasi:

Ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, «Ho'jalik yurituvchi sube'ktlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonun va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tayyorlangan.

Shartnoma loyihasining shartlari, hususan taraflarning huuqlari va majburiyatlari, hisob-kitob qilish tartibi, taraflarning javobgarligi, nizolarni hal etish tartibi. Fors major-major va javobgarlikdan ozod etish masalalari qonun hujjatlari talablariga mos keladi.

Huquqshunos: _____